

## TASVIRIY SAN'AT MAYDONIDA AKVAREL RANGTASVIRI

**Baymurzayeva Oyqaram Shodiyevna<sup>1</sup>, Mamatkulova Afruza Sherzod qizi<sup>2</sup>**

<sup>1</sup>A.Qodiriy nomidagi JDFU katta o'qituvchisi, <sup>2</sup>“Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi” yo'nalishi 2-bosqich talabasi, Jizzax sh., O'zbekiston

*e-mail: baymurzayeva77@gmail.com*

**Annotatsiya.** Maqolada akvarel bo'yog'i, uning rivojlanishi va unda ijod qilgan rassomlar, hozirgi davrdagi takomillashuvi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** estetik, akvarel, papirus, mohirlik, tasviriy san'at.

**Аннотация:** В статье содержится информация об акварельной краске, ее развитии, художниках, создавших ее, и ее совершенствовании в современный период.

**Ключевые слова:** эстетика, акварель, папирус, мастерство, изобразительное искусство.

**Annotation:** The article contains information about watercolor paint, its development, the artists who created it, and its improvement in the present period.

**Key words:** aesthetics, watercolor, papyrus, skill, fine art.

Insoniyat sivilizatsiyasi davomida tasviriy faoliyat davr ruhiyati, ma'naviy va albatta estetik qarashlarni o'zida aks ettirib kelgan.

Ma'lumki, borliqdagi mavjud har bir narsa yoki buyum o'zining muayan rang tusiga egadir.

Tasviriy san'atda rang rangtasvirning asosiy ifodasi va tasvir vositasi hisoblanadi.

Jahon tasviriy san'ati taraqqiyotida ranglarni aks ettirishning turli usullari bo'lsada, biroq barchasining asosini ranglarni bir-biri bilan aralashtirib, yangi rang hosil qilish uslubi tashkil qiladi.

Rangtasvirni amalda o'rganish akvarel bo'yog'ida ishlashdan boshlanadi.

Akvarel bo'yog'i bizgacha papirusga ishlangan naqshlar orqali yetib kelgan. Akvarel lotincha so'z bo'lib, suvda eriydigan degan ma'noni anglatadi. Akvarel – o'zining shaffofligi, yorqinligi, yupqa qatlam hosil qilishi, silliq surkalishi, quyilib va bir joyga qatlam tarzida yig'ilib qolmasligi bilan boshqa bo'yoqlardan alohida

ajralib turadi.

Tarixga nazar tashlasak, qadimda akvarel Yaponiya, Misrda keng qoʻllanilgan. Angliyada bundan bir yarim asr avval yirik sanʼat asarlarini akvarel boʻyogʻida ranglash keng rivojlangan.

D.Kozens, D.Konstabel, R.Bonington, T.Gyortin kabi rassomlar oʻz asarlaridagi Angliyaning goʻzal manzaralarini tasvirlashda akvareldan mohirlik bilan foydalanishgan.

Oʻrta asrlarda Rossiyada boʻlganidek Gʻarbiy Evropada ham akvareldan cherkovga qarashli boʻlgan diniy kitoblarni naqsh va illyustratsiyalar bilan bezashda foydalanildi. Lekin u vaqtlarda akvarel oq boʻyoq moddasi qoʻshilgan holda ishlatilar edi.

Oʻrta Osiyoda akvarel kitoblarni chiroyli qilib bezash maqsadida qoʻllanildi. Oʻrta Osiyo rassomlari ichida ayniqsa Kamoliddin Behzod kitoblarga akvarel bilan miniatyura hamda illyustratsiyalar ishlashda shuhrat qozondi.

Akvarelli rangtasvirning rivojlanishi XII asrda kitob rang- tasviri bezagi bilan bogʻliq. Buni fors miniaturalari misolida koʻrishimiz mumkin. Bu usul keyinchalik Sharq davlatlariga tarqalib ketgan. XV asrlarga kelib toza yelimli suv boʻyoqdan foydalanilgan (qoʻshimcha moddasiz). Ushbu boʻyoqlar oʻzining tozaligi, shaffofligi bilan ajralib turgan. Asr oʻrtalari- ga borib musavvirlar nafaqat kitob muqovasi bezagida, hatto rasm va badiiy bezaklarda ham yelimli, suvda eriydigan boʻyoq- lardan foydalanishgan. Gʻarbda akvarel boʻyoqlarining texnik imkoniyatlari birinchi boʻlib Albrect Dyurer (1471 — 1528) tomonidan keng ochib berildi. Buni musavvirning manzarali suratlarida koʻrishimiz mumkin.



A. Dyurer. “Quyov”. Akvarel



A. Dyurer. “O'simliklar”. Akvarel

XIX asrning oxirlarida akvarel I.E.Repin, B.A.Serov, M.A.Vrubel kabi rassomlarning asarlarida o'zining yangicha sifatlarini namoyish qildi. Rossiya tasviriy san'ati namoyandalari A.M.Gerasimov, S.B.Gerasimov, O.G.Bereyskiy, Kukriniksilar, N.N.Bolnov, I.Niprinsev va boshqalar ham akvarelda ko'plab qiziqarli asarlar yaratdilar. Ular yaratgan asarlarning ko'pchiligini kitoblarga ishlangan illyustratsiyalar tashkil etadi. O'zbekistonda esa akvarelda ishlash san'atining rivojini B. Hamdamiy, O'.Tansiqboev, G.Shevyakov, G.Chiganov, N.Cheprakov va ayniqsa Ch.Ahmarovning ijodida ko'rish mumkin. .

Hozirgi paytda tasviriy san'at asarlarini Akvarel rangtasviri bilan ishlash usullarining yanada takomillashuvi uning turlarining ko'payishiga olib keldi.

Chunonchi, qattiq, yumshoq va xamirsimon holdagi akvarellar mavjud bo'lib, turli kompozitsiyalar chizishda keng qo'llaniladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H.Egamov. Bo'yoqlar bilan ishlash. Toshkent . O'qituvchi. 1981-yil.
- 2.G', A.Artiqov. Rangtasvir texnikasi va ashuolar texnologiyasi. Toshkent. Sharq. 2007-yil
3. М.В. Алпатов .Композиция в живописи. Москва.Искусство 1940 г.